ISNN 3030-3907

2025/4
VOLUME 6

DEVELOPMENT OF SCIENCE

ILMIY JURNAL



Development of science

Ilmiy jurnal

2026/4 VOLUME 6

ISSN 3030 -3907

Ilmiy jurnal OAK rayosatining 2024 yil 27 sentabrdagi 361-son qaroriga asosan 02.00.00 kimyo fanlari hamda 2025 yil 12 fevral 367- son qaroriga asosan 05.00.00 texnika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) va fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiya ishlari yuzasidan dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan.

BOSH MUHARRIR:
Temirov Alisher Hoshim o‘g‘li – texnika fanlari falsafa doktori (PhD),Dotsent.
TAHRIRIYAT KENGASH RAISI:
Fozilov Sadriddin Fayzullayevich – texnika fanlari doktori, professor
TAHRIRIYAT KENGASH A’ZOLARI

TEXNIKA FANLARI/ TECHNICAL SCIENCES/ ТЕХНИЧЕСКИЕ НАУКИ

Bozorov G‘ayrat Rashidovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor
Abdurahmonov Olim Rustamovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor
Adizov Bobur Zamirovich
O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Umumiy va noorganik kimyo instituti, professor
Hayitov Ruslan Rustamjonovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor
Jumayev Qayum Karimovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor.
Berdiyev Dorob Murodovich
Islom Karimov nomidagi Toshkent Davlat Texnika Universiteti, professor
Maxmudov Rafiq Amonovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor.
Tilloyev Lochin Ismatilloyevich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Raxmonov Qahramon Sanakulovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Barakayev Nusratullo Rajabovich
Islom Karimov nomidagi Toshkent Davlat Texnika Universiteti, professor.
Jo‘rayev Xayrullo Fayziyevich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor.
Panoyev Erali Rajabboyevich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Ataullayev Sherzod Nabiullyevich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Murodov Malik Negmurodovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Axmedova Ozoda Bahronovna
Islom Karimov nomidagi Toshkent Davlat Texnika Universiteti.
Safarov Bahri Jumayevich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Xaydarov Axtam Amonovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Safarov Jasur Alijon o‘g‘li
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Асадова Раъно Дилмуратовна
Тошкент Давлат техника университети доценти

KIMYO FANLARI/ CHEMICAL SCIENCES/ ХИМИЧЕСКИЕ НАУКИ

Axmedov Voxid Nizomovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor
Umarov Baqo Bafoyevich
Buxoro Davlat Universiteti, professor
Kodirov Abduaxad Abduraximovich
Qarshi davlat Universiteti, professor
Qurbonov Mingniqul Jumagulovich
Qarshi davlat Universiteti, dotsent
Turemuratov Sharibay Naurizbaevich
O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Qoraqalpog‘iston bo‘limi Bosh ilmiy kotibi, professor
Tursunov Kaxor Shonazarovich
Qarshi davlat Universiteti, professor
Do‘stov Hamro
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor
Panoyev Nodir Shavkatovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Olimov Bobur Bahodir o‘g‘li
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Kasimov Sherzod Abduazimovich
Termiz Davlat Universiteti, professor.
Aliqulov Rustam Valiyevich
Termiz Davlat Universiteti, professor
Tropov Xamza Tursunovich
Samarqand Davlat Universiteti, professor

IQTISODIYOT FANLARI/ ECONOMICS/ ЭКОНОМИЧЕСКИЕ НАУКИ

Nizamov Aslitdin Badreddinovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor.
Boboyev Akmal Choriyevich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor.
Ergashxojayeva Shaxnoza Djasurovna
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, professor
Saidaxmedova Nodira Ilxomovna
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, professor
Muxsinov Bekzod Toxirovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Shakarov Qulmat Ashirovich
Renessans ta'lim universiteti,dotsent.
Jumaeva Zulfiya Qayumovna
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Norova Salomat Yusupovna
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Avezova Shaxnoza Maxmudjonovna
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Jalilov Jamshid G‘anijonovich
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, dotsent
Xasanova Gulruh Djumanazarovna
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.

PEDAGOGIKA FANLARI/ PEDAGOGICAL SCIENCES / ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ НАУКИ

Siddiqova Sadoqat G‘afforovna
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Zoyirov Erkin Xalilovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, DSc, professor
Gaffarov Feruz Hasanovich
Puchon Universiteti, *professor*
Ruziyev Davron Yuldashevich
Buxoro Davlat Universiteti, professor
Muradova Firuza Rashidovna
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor.
Yunusova Gulandon Samiyevna
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor.
To‘xtayeva Zebo Sharifovna
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor.
Navro‘zova Gulchixra Nigmatovna
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Uzoqova Laylo Polvonovna
Buxoro muhandislik – texnologiya instituti, dotsent.
To‘raqulova Marjona Qiyom qizi
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Muradova Zarina Rashidovna
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Murodov Sanjar Aslonovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Shodiyev Jahongir Jo‘raqulovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent
Gaffarov Laziz Hasanovich
Buxoro muhandislik – texnologiya instituti, dotsent.

Tahririyat a’zolarning to‘liq ro‘yxati jurnalning www.devos.uz saytida keltirilgan.

Tahririyat hay’ati a’zolarining tarkibini o‘zgartirish hamda qo‘shimcha kiritish yoki tahririyat a’zoligidan chiqarish bosh muharrir tomonidan amalga oshiriladi.

ISSN 3030-3907

Development of science ilmiy jurnali 2024 yil 15 aprel kuni №256445 sonli guvohnoma bilan Davlat ro‘yxatidan o‘tgan.

To‘plam elektron ko‘rinishda (pdf formatida) mualliflarga taqdim etiladi. To‘plamga kiritiladigan maqolalarning mazmuni, ulardagi statistik ma’lumotlar va me’yoriy hujjatlarning to‘g‘riligiga hamda har qanday fikr - mulohazalarga mualliflarning o‘zlari mas’ul hisoblanadilar. Talablarga javob bermaydigan maqolalar to‘plamga kiritilmaydi. Tashkiliy qo‘mita maqola matnini qisqartirish, qisman tuzatish kiritish, seksiyalarga joylashtirish huquqiga ega.

ISSN 3030-3907

UDK.614,84

OB'EKTLARDA MEHNAT SHAROITINI O'RGANISHNING ILMIY NAZARIYASI

Xodjakulov Muxtorjon Nazarkulovich
Andijon davlat texnika instituti dotsent
E-mail: xodjakulovmuxtorjon@gmail.com

Annotatsiya. Mehnat jarayonidagi xavfsizligi, sihat-salomatligi va ish qobilyatining saqlanishiga qaratilgan tadbirlar. Qonun hujjatlarida mehnat jarayonida qo'llaniladigan ijtimoiy-iqtisodiy, tashkiliy, texnik, sanitariya-gigiyena, davolash-profilaktika chora tadbirlari belgilab qo'yiladi. Mehnat qiluvchi shaxs xavfsizligi, salomatligi, mehnat qilish qobiliyatini himoyalash, sog'lom mehnat sharoitlari yaratish, kasb kasalliklari yuz berish xavfini oldini olish, ishlab chiqarishda jarohatlanishlarga yo'l qo'ymaslik kabilar mehnat muhofazasi oldidagi vazifalar hisoblanadi.

Kalit so'zlar. mehnat sharoitlari, kasb kasalliklari, xavfsizlik, ishchilar, omillar, sanitariya.

Аннотация. Меры, направленные на обеспечение безопасности, здоровья и трудоспособности в процессе труда. Законодательство устанавливает социально-экономические, организационные, технические, санитарно-гигиенические, лечебно-профилактические меры, применяемые в процессе труда. Задачи охраны труда включают защиту безопасности, здоровья и трудоспособности трудящегося, создание здоровых условий труда, предотвращение риска профессиональных заболеваний и предотвращение травм на производстве.

Ключевые слова: условия труда, профессиональные заболевания, безопасность, работники, факторы, санитария.

Abstract. Measures aimed at maintaining safety, health and working capacity in the labor process. The legislation establishes socio-economic, organizational, technical, sanitary-hygienic, treatment and preventive measures applied in the labor process. The tasks of labor protection include protecting the safety, health, and working capacity of the working person, creating healthy working conditions, preventing the risk of occupational diseases, and preventing injuries in production.

Keywords. working conditions, occupational diseases, safety, workers, factors, sanitation.

KIRISH.

Mavzuning dolzarbligi. Hozirgi vaqitda mavjud bo'lgan turli muassasa, korxona, tashkilotlarda faoliyat olib borayotgan ishlovchi aholining sog'lig'ini muhofaza qilish muhim vazifalardan biri hisoblanib, uning yechimi ekologik,

ISSN 3030-3907

ijtimoiy-iqtisodiy, tibbiy biologik va boshqa vazifalarni hal qilish bilan bog‘liqdir.

Dunyoda biron bir mamlakat barcha mehnat jarohatlari yoki ish bilan bog‘liq kasalliklarni o‘rganish darajasini pastligi, kasalliklarga oid statistik ma'lumotlar ko‘pincha to‘liq emasligi ko‘plab muammolarni keltirib chiqaradi. Kasbiy kasalliklar va kasalliklarga oid ma'lumotlarni yig‘ish, qayd etish va xabar berish ularning oldini olishda muhim ahamiyatga ega va profilaktika choralarini ishlab chiqish uchun ularning sabablarini aniqlash va o‘rganish dolzarb masalalardan biridir.

Tadqiqot mavzusi bo‘yicha adabiyotlar sharhi (tahlili). Ma’lum bo‘lishicha, qadim yunon va rim adabiyotlarida, Arastu qo‘lyozmalarida kumush konlarida ishlayotgan odamlarda og‘ir xastalik alomatlari borligi haqida ma’lumotlar bo‘lgan.

Gippokrat (Buqrot) o‘z davrida konda ishlovchilarning organizmiga qo‘rg‘oshin changining salbiy ta’sir ko‘rsatishini payqagan edi. U qo‘rg‘oshindan zaharlanishga taalluqli «qo‘rg‘oshinli sanchiq» nomi bilan ataluvchi klinik manzarani tasvirlab bergan. XVI asrda sanoat tez sur'atlar bilan taraqqiy etgan davrdan boshlab, kasb kasalliklariga doir maxsus qo‘lyozmalar paydo bo‘la boshlagan. Italiyalik shifokor Bernardino Ramatsini esa kasb kasalliklari fanining rivojlanishiga munosib hissa qo‘shdi va kasbga taalluqli xastaliklarni tavsiflab bergan. Kasb kasalliklarining tasnifi, davolash va profilaktik usullari bilan bog‘liq nazariy masalalarni ishlab chiqishda Rossiya olimlari E.I. Andryeva Galanina. V.G. Artamonova, M.A. Vigdorchik, P.P.Dvijkov, E.A.Drogichina, A.A.Letavet, N.F.Izmerov, A.M.Rashevskaya respublikamizda faoliyat olib borayotgan olimlarimiz Sh.G.Atabayev, N.M.Demidenko, L.A.Katsenovich, T.I.Iskandarov, F.N.Nuritdinova, Sh.K.Mahmudova va boshqalar katta hissa qo‘shishgan. Ular klassik kasb kasalliklari bo‘lgan vibratsiya kasalligi, pnevmokoniozlar, benzol, qo‘rg‘oshin, simob. pestitsidlardan zaharlanish va boshqa kasalliklami keng ko‘lamda o‘rganishgan. Shunday qilib, kasb kasalliklarini aniqlashda ijtimoiy ekspertiza masalalarini to‘g‘ri yechish uchun shifokor ekspert kasb kasalliklarining patogenezi va klinik xususiyatlari, ularning kechishi, natijasi, asoratlari, keyingi oqibatlari va buzilgan funksiya mumkin qadar tiklash darajasi bo‘yicha kerakli darajada ilmiy va amaliy ishlarni tashkil etish va axborotlarni jamlash muayyan darajada hizmat qiladi.

Tadqiqotda qo‘llanilgan metodikaning tavsifi. Kasbiy kasalliklarga chalinganlik to‘g‘risida keng qamrovli va ishonchli milliy ma'lumotlarni taqdim etish. Qiyosiy milliy statistika va hisobotlari va xalqaro ma'lumotlar dasturlash monitoring usulidan foydalaniladi.

ISSN 3030-3907

ADABIYOTLAR TAHLILI. Dunyo aholisining yarmidan ko‘pi ish bilan band, shuning uchun har bir mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi ishchilarning sog‘lig‘i, xavfsizligi, mehnat qobiliyati va farovonligiga bog‘liq. Sog‘lom ishchilar - samarali ishchilar. Ish bilan bog‘liq kasallik va mehnatga layoqatsizligi sababli ishdan bo‘shatilish korxonalarning faoliyatini buzadi va ularning obro‘siga putur etkazadi, yangi ishchilarni jalb qilish va o‘qitish kabi xarajatlarni ijtimoiy va sog‘liqni saqlash xarajatlarini oshiradi. Shunday qilib, ishdagi xavfsizlik va sog‘liq nafaqat alohida ishchilar, balki korxonalar, jamoalar va mamlakatlar uchun ham muhimdir. Ishchilarning xavfsizligi va sog‘lig‘i mehnatkash odamlarning umumiy hayot sifatiga va jamiyatning uyg‘unligiga ta'sir qiladi. Ish paytida xavfsizlik va sog‘liq, shuningdek, samaradorlikni oshirish orqali korxona rentabelligi va milliy iqtisodiyotiga ijobiy hissa qo‘shadi [2;3;4].

Ish tufayli kelib chiqadigan kasalliklar va ularning ishchilar sog‘lig‘iga ta'siri to‘g‘risidagi ma'lumotlar milliy siyosat ishlab chiqaruvchilari va ish joyi xavfsizligi va sog‘lig‘i uchun mas'ul bo‘lgan tashkilotlar uchun dalillarga asoslangan mehnat xavfsizligi va sog‘lig‘iga oid siyosatni shakllantirish, shuningdek, harakatlarning ustuvor yo‘nalishlari va maqsadlarini belgilash uchun muhimdir [5;].

Kasbiy kasalliklar to‘g‘risidagi yuqori sifatli ma'lumotlar ish beruvchilar, mehnat xavfsizligi va sog‘lig‘i tartibga soluvchi organlar, ijtimoiy ta'minot muassasalari, mehnat xavfsizligi sohasi mutaxassislari va boshqa manfaatdor tomonlarning ish bilan bog‘liq kasalliklarning oldini olish va ularga qarshi kurashish bo‘yicha o‘z majburiyatlarini bajarishlari uchun juda muhimdir. Ular, shuningdek, ish joyidagi xavfsizlik va sog‘liq uchun ustuvor vazifalar va maqsadlarni belgilashda, tegishli o‘quv va ta'lim dasturlarini ishlab chiqishda, reabilitatsiyani takomillashtirishda va kasbiy kasallik holatlarida kompensatsiya olishda muhim ahamiyatga ega.

Milliy kasbiy kasalliklar to‘g‘risidagi ma'lumotlar xalqaro taqqoslash uchun, shuningdek, milliy profilini xalqaro standartlarga moslashtirish uchun muhimdir va kasbiy kasalliklar yukining mintaqaviy va global baholarini hisoblash uchun ishlatilishi mumkin.

Faqatgina bir nechta mamlakatlarda kasbiy kasalliklar to‘g‘risida ma'lumot to‘plashning keng qamrovli tizimlari mavjud. Bunday kasalliklarni ro‘yxatdan o‘tkazish va ularga xabar berishdan olingan yuqori sifatli ma'lumotlar sababchi omillarni aniqlash va kasbiy kasalliklarning tarqalishini osonlashtiradi va vaqt tendentsiyalariga rioya qilishga imkon beradi. Ushbu ma'lumotlar, shuningdek, potentsial ta'sir ko‘rsatadigan boshqa ishchilar uchun profilaktika choralarining samaradorligini aniqlashga yordam beradi. Kasbiy kasallik sabablarini tan olish va

ISSN 3030-3907

tushunish yaxshilanishi ishchilarga yanada samarali davolanish va aralashuvlarga olib kelishi mumkin.

Kasbiy kasalliklar to‘g‘risida xabar bermaslik ko‘plab mamlakatlarda, ayniqsa rivojlanayotgan mamlakatlarda katta muammo hisoblanadi. Kasbiy kasalliklarning to‘liq yuki va tarqalishi to‘g‘risida to‘liq tasavvurga ega bo‘lmaganda, korxona va milliy darajadagi barcha uchun mehnatni muhofaza qilish maqsadiga erishish qiyin bo‘ladi. Shuning uchun kasbiy kasalliklarni qayd etish va xabardor qilishning milliy tizimini (NSRNOD) tashkil etish va takomillashtirish zarur.

Tegishli xalqaro hujjatlardagi asosiy prinsiplar va talablar kasbiy kasalliklarni kuzatish milliy tizimini yaratish uchun yaxshi asos yaratadi. Ushbu hujjatlar orasida mehnat xavfsizligi va sog‘lig‘i to‘g‘risidagi konvensiyaning 1981 yildagi Protokoli (1981 y., № 155), kasbiy kasalliklar bo‘yicha tavsiyanomalar ro‘yxati, 2002 y. (194-son) va OSHTning ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisalarni qayd etish va ularga xabar berish bo‘yicha amaliyot kodeksi va Kasalliklar, 1996 yil qarorlari bilan ahamiyatga egadir.

So‘nggi 5 yil ichida ro‘yxatga olingan kasb kasalliklarining 60 foizidan ko‘prog‘i jismoniy omillar ta’sirining natijasidir. Shularning 35 foizi shovqin natijasida, 26 foizi vibratsiya oqibatida, 31 foizidan ortig‘i kimyoviy omillar ta’sirida zaharlanish va kasallikka chalinish holatlaridir. Kasb kasalligining yuzaga kelishi ishlab chiqarishda surunkali uzoq vaqt davomida noqulay va himoyalanmagan mehnat sharoitida mehnat qilish natijasida sodir bo‘ladi. Shuni qayd etish lozimki, korxonada mehnat faoliyatini olib borayotgan kasb kasalligiga chalingan xodimlar muntazam ravishda tibbiyot ko‘rigidan o‘tib to‘rishi lozim bo‘ladi.

Bu esa albatta ish vaqti fondiga ta’sir ko‘ratib, ish vaqtining yo‘qolishiga olib keladi. Ishlab chiqarishdagi kasb kasalliklariga, asosan inson nafas olish organining turli changlar ta’siri ostida vujudga keladigan kasalliklar turkumi; yuqori titrash ta’siri natijasida yuzaga keladigan tana titrashi kasalliklari; turli zaharli va kimyoviy vositalar bilan ishlash oqibatidagi surunkali va o‘tkir teri, ichki va asab kasalliklari majmuasidan iborat bo‘ladi.

Ishlab chiqarish jarayonidagi mehnat sharoitini xodimning kasallikka chalinishi holatiga tushushidagi o‘zaro bog‘liqligini aniqlashda vaqtincha mehnatga layoqatsizlik statistik hisobi va xodimlarga tibbiyot muassasalarida ko‘rsatilgan tibbiy yordamlarni chuqur tahlil qilish asosida hisoblab topiladi.

Ushbu tahlil qilish asosida ishlab chiqarishdagi turli omillar ta’sirida yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan kasalliklar aniqlanadi va mehnat sharoitini yaxshilash hamda kasallikni oldini olish choralarini ko‘rish imkonini beradi. Shu nuqtai

ISSN 3030-3907

nazardan qayd etib o‘tish joizki, halqaro ISO 1999:1975 standart mutaxassislari tomonidan olib borilgan tadqiqotlar natijasida yuqori shovqinli ishlab chiqarish jarayonida band bo‘lgan ishchilarning yoshi, ish staji va shovqin darajasiga bog‘liq holda eshitish a’zosi(quloq)ning susayishi mumkinligi belgilab o‘tilgan.

NATIJA VA XULOSALAR. Kasb kasalligi ishlab chiqarishning zararli omillarini hisobga olgan holda belgilanadi. Bu kasallikning fizik (kasbga aloqador karlik, vibratsiya kasalligi, nur kasalligi, kesson kasalligi, balandlik kasalligi va b.), biologik (infektsion va parazitar kasalliklar: brutsellyoz, kuydirgi) va kimyoviy omillar ta’sirida (zaharlanish), ba’zi changlar uzoq vaqt nafasga olinganda (pnevmokonioz, bronxit va b.), shuningdek, jismoniy zo’riqqanda yoki shikastlanganda (nevrit, bursit) vujudga keladigan turlari farq qilinadi. Uning kelib chiqishiga organizmning o’ta toliqishi va kasallikka qarshi kurasha olish faoliyatining pasayishi ham sabab bo’ladi. Kasbiy kasalliklarni ro‘yxatga olish va xabar berishning operatsion tizimi turli xil faoliyatdagi kasbiy kasalliklar, jarohat, halokatlarni oldini olishga hizmat qiladi. Kasbiy kasalliklar, jarohat, halokat bo‘yicha tezkor malumotlar yig‘ish uchun axborot tizimlarini ishlab chiqishga oid toplangan dastlabki malumotlar tahlili milliy ro‘yxati va bunday kasalliklarni aniqlash va tan olish mezonlari belgilanishi bilan izohlanadi. Axborot tizimi asosida ro‘yxatga olish va xabardor qilish orqali to‘plangan aniq va keng qamrovli ma'lumot, kasallangan ishchilarga kompensatsiya berish va ish joyidagi profilaktika choralari uchun juda muhim xisoblanadi. Kasbiy kasalliklar, jarohat, halokat bo‘yicha tezkor malumotni yig‘ish uchun axborot tizimlarini ishlab chiqishga oid tavsiyalar qayd etish va ularga xabar berish bo‘yicha talablar ishlab chiqilishi va ish beruvchilarning majburiy javobgarligi sifatida qonun bilan belgilanishini takomillashtirish. Vakolatli organ kasbiy kasalliklar to‘g‘risidagi ma'lumotlarni yig‘ish, to‘plash va tahlil qilish hamda kasbiy kasalliklar bo‘yicha milliy statistikani tizimli dasturni umumiy nazoratini kuchaytirishiga qaratiladi.

LIST OF USED LITERATURE

1. Mukhtorjon, K., & Dilmurad, R. (2022). PROPOSALS FOR AMENDMENTS TO REGULATORY DOCUMENTS FOR HIGH-RISE BUILDINGS. Universum: технические науки, (6-6 (99)), 51-54.

2. Ходжакулов, М. Н. (2022). Проблемы психологической подготовки населения к действиям в чрезвычайных ситуациях и других экстремальных условиях. Universum: технические науки, (6-1 (99)), 18-20.

3. ХОДЖАКУЛОВ, М. Н. ПРОБЛЕМЫ ПСИХОЛОГИЧЕСКОЙ ПОДГОТОВКИ НАСЕЛЕНИЯ К ДЕЙСТВИЯМ В ЧРЕЗВЫЧАЙНЫХ СИТУАЦИЯХ И ДРУГИХ ЭКСТРЕМАЛЬНЫХ УСЛОВИЯХ. UNIVERSUM, 18-20.

ISSN 3030-3907

4. Nazarkulovich XM. MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARI TARBIYALANUVCHILARINI FAVQULODDA VAZIYATLARDAN MUHOFAZALANISHG TAYYORLASH. AndMI Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyalari. 2024 Mar 5;1(1):402-5.
5. Nazarkulovich, K. M. (2025). Methodology of Teaching Safety in Emergency Situations. Spanish Journal of Innovation and Integrity, 43, 263-265.

ISSN 3030-3907